

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL -XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM
4-BOSQICH 402 - GURUH TALABASI**

VAISOVA FARIDA RAXIMBERDIYEVNANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo`nalishi: “Boshlang`ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish”

Bakalavr darajasini olish uchun

Urganch – 2012 yil

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL -XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM

4-BOSQICH 402 - GURUH TALABASI

VAISOVA FARIDA RAXIMBERDIYEVNANING

***“4-sinf o`qish darslarida modulli texnologiyalardan
foydalanish” mavzusidagi***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo`nalishi: “Boshlang`ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish”

Bakalavr darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar:

o`qituvchi O. Pirmetova

Taqrizchi:

Urganch tumanidagi 5-son umumta`lim maktab
boshlang`ich sinf o`qituvchisi Otajonova R.

Ish ko`rildi va himoya

qilishga ruxsat berildi.

«BTN va M» kafedrasining

2012 yil «_____» dagi

№____ bayonnomasi.

Kafedra mudiri: dots. S.Ollaberganova

Urganch – 2012

MALAKAVIY - BITIRUV ISHINI BAJARISH

GRAFIGI.

№	Loyiha bosqichlarining nomi	Nazorat vaqti	Rahbarning talaba tomonidan bajarilgan ishlarning ahvoli haqidagi belgisi, sana,imzo
1.	Mavzuni kafedrada tasdiqlash	Sentabr 2011	Bajarildi
2.	Malakaviy - bitiruv ish rejasini tuzish	Sentabr 2011	Bajarildi
3.	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish. Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qiluvchi davlat hujjatlarini o'rganish	Oktabr Noyabr 2011	Bajarildi
4.	Mavzuning nazariy pedagogik - metodologik asoslarini o'rganish	Dekabr 2011	Bajarildi
5.	Yechilayotgan muammoni amalga oshirish uchun aniq didaktik va tarqatuv materiallarini ishlab chiqish	Yanvar 2012	Bajarildi
6.	Noan'anaviy o'qitish usularidan foydalanish uchun metodologik va pedagogik tajribalarni o'tkazish.	Fevral 2012	Bajarildi
7.	Tajriba natijalarini tahlil etish va ishni taqrizdan o'tkazish.	Mart 2012	Bajarildi
8.	Rahbar tomonning tugallangan bitiruv - malakaviy ishlarini taqrizdan o'tkazish.	Aprel 2012	Bajarildi
9.	Tugallangan ishni rahbar bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.	May 2012	Bajarildi

Bitiruvchi talaba_____

(imzo)

Malakaviy – bitiruv ishi

rahbari_____

(imzo)

Urganch Davlat Universiteti “Pedagogika” fakulteti «Boshlang`ich ta`lim nazariyasi va metodikasi»
kafedrası

Malakaviy - bitiruv ishini tayyorlash bo`yicha topshiriq.

Talaba Vayisova Farida

1.Bitiruv - malakaviy ishi mavzusi: 4-sinf o`qish darslarida modulli texnologiyalardan foydalanish.

2. Pedagogika fakulteti Ilmiy Kengashining «31» 10.2011 dagi yig`ilishida muhokama qilinib, №2 buyruq bilan tasdiqlangan.

3. Talabaning tugallangan ishini topshirish muddati.may 2012

4. Bitiruv - malakaviy ishi tarkibi va bo`limlarining qisqacha mazmuni: 4 sinf o`qish darslarining maqsad vazifalari, darslarning turlari.

a) Bitiruv - malakaviy ishining nazariy qismi(bitiruv - malakaviy ishida qo`llanadigan savollar ro`yxati) to`rtinchi sinf o`qish darslarini modulli texnologiya asosida tashkil qilish va o`tkazish.

b) Maktabdagi pedagogik – psixologik tajribalarni materiallarini (rasm, chizmalar, o`quvchilar ishlari) Prizintatsiya, ko`rgazmalar, chizmalar.

5. Topshiriq berilgan vaqti 2011 yil sentabr

1.Bitiruv - malakaviy ish mavzusi kafedrada tasdiqlangandan keyin bitiruv - malakaviy ishi topshirig`i va uni bajarish grafigi ikki nusxada to`ldiriladi. Ularning biri talabaga beriladi, ikkinchisi kafedrada saqlanadi.

U kafedrada bitiruv - malakaviy ishi papkasida saqlanib, talabalarning malakaviy-bitiruv ishini bajarishi muhokama qilinadigan yig`ilishlarda ko`rib boriladi. Shu haqda kafedra yig`ilishi bayonnomasida va bitiruv- malakaviy ishi topshirig`ida qayd qilinib boriladi.

DAK yig`ilishida bitiruv- malakaviy ishini himoya qilishdan avval, ish kafedra ko`rigidan o`tkazilib DAK ka qo`yilish masalasi hal qilinadi. Shu haqda kafedra yig`ilishi bayonnomasida va bitkazuvchi Vaisova Faridaning bitiruv - malakaviy ishi topshirig`i grafigi qo`shib taqdim qilinadi.

Tasdiqlayman.

“Boshlang`ich ta`lim nazariyasi va metodikasi”

kafedrası mudiri: _____ dots.S.Ollaberganova

Rahbar _____

Topshiriqni bajarish uchun qabul qildim _____

Bitkazuvchi talaba imzosi. _____

Bitiruv - malakaviy ish loyihasi himoyaga qo`yildi.

Kafedra yig`ilishining _____2012 yildagi bayonnomasi.

Kafedra mudiri: _____ dots.S.Ollaberganova

Kotiba: _____ Ro`zmetova S.

Bitiruv - malakaviy ish loyihasi rahbari: _____

Mavzu: 4-sinf o`qish darslarida modulli texnologiyalardan foydalanish.

Reja:

I bob

4-sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari va unga qo`yiladigan modulli texnologiyaning mohiyati.

1.1. 4-sinf o`qish darslarining maqsad vazifalari.

1.2. Modulli texnologiya va uni boshlang`ich sinf o`qish darslarida qo`llash.

II bob

4-sinf o`qish darslarini modulli texnologiya asosida tashkil qilish va o`tkazish.

2.1. 4-sinf o`qish darslari modulli texnologiyani qo`llash.

2.2. 4-sinf o`qishdan umumlashtiruvchi darslarni modulli texnologiya asosida tashkil etish va o`tkazish yo`llari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasi(1997-yil 29-avgust) da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tadbiriq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida " ... o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayonini didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish" "... ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasi axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash " hamda "... ta'lim muassasalarining resurs kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash o'quv tarbiya jarayoni yangi o'quv uslubiy majmualar ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash " kabi dolzarb vazifalar ijobiy hal etish lozimligi alohida ta'kidlab ko'rsatilgan.

Mazkur vazifalar muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi ya'ni uzluksiz ta'lim tizimni xodimlari, pedagog o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalar mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishda, shuningdek ta'lim jarayonida tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarining xususiy fanlari asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalarda oqilona foydalana bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishini kafolati bo'la oladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilishda pedagogik texnologiyalar muhim sanaladi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida qo'llanilayotgan texnologiyalardan biri modulli o'qitish texnologiyasi hisoblanadi. Modulli o'qitishda o'quv dasturlari to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali o'qitishni tabaqalash imkoniyati mavjud bo'ladi. Ya'ni o'qitishning individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda va pedagogik texnologialarga bag'ishlangan adabiyotlarda modulli o'qitish texnologiyasi atroflicha o'z aksini topgan. Ularda

modulli o`qitishning mohiyati maqsad va vazifalari kabi masalalar keng yoritilgan. Shuningdek, ilmiy-metodik jurnallarda ham bu texnologiyaning xususiyatlarini ko`rsatib beruvchi bir qator maqolalar bor. Shunday bo`lsada boshlang`ich sinf o`qish darslarini modulli o`qitish texnologiyasi asosida tashkil qilish va o`tkazish yo`llari hozirgacha o`z taqdidini topmagan masalalardan hisoblanadi. Shu bois ushbu bitiruv-malakaviy ish mavzusi dolzarblik kasb etadi. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib o`z oldimizga 4-sinf o`qish darslariga modulli texnologiyalarni tadbiq qilish masalalarini yoritishni maqsad qilib qo`ydik.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni hal qilishni belgiladik:

- 4-sinf o`qish darslarining maqsad vazifalarini ko`rsatib berish;
- Modulli o`qitish texnologiyasining mohiyatini ochib berish;
- 4-sinf o`qish darslarida modulli o`qitish texnologiyasini qo`llash yo`llarini belgilash, ularning modullarini ishlab chiqish;
- 4-sinfdan o`qishdan umumlashtiruvchi darslarni modulli o`qitish yordamida tashkil qilish yo`llarini belgilash;
- 4-sinf o`qish darslarida modulli o`qitish texnologiyasida foydalanishning muhim jihatlari yoritish.

Tadqiqot obyekti: 4-sinf o`qish darslariga modulli o`qitish texnologiyasini joriy etish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti: 4-sinf o`qish darslariga modulli o`qitish texnologiyasini qo`llash yo`llaridir.

Tadqiqot metodlari: analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, pedagogik kuzatish va mavzuga doir mavjud adabiyotlar tahlil qilish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi”, “Boshlang`ich ta`lim DTS va o`quv dasturi”, “Barkamol avlod yili”, “Davlat dasturi”, Prezidentimizning asarlari hamda ta`lim tarbiyaga oid fikrlari, mavzuga doir ilmi-metodik adabiyotlar.

I bob

4-sinf o`qish darslarining maqsad-vazifalari va unda qo`llaniladigan modulli texnologiyaning mohiyati.

1.1. 4-sinf o`qish darslarining maqsad-vazifalari.

Boshlang'ich sinfning dastlabki uch yili davomida o'quvchilar harflarni o'rganib so'z va undagi bo'g'inlarni to'g'ri o'qish, jumladan so'zlarga ma'no urg'usi berib, ravon va tushunib o'qish kabi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

To'rtinchi sinfda esa o'quvchilarning o'qishga oid ko'nikma va malakalarni yanada takomillashtiriladi. Ya'ni o'qish materiallarni tushunish va matn ustida ishlashga e'tibor kuchaytiriladi.

Boshlang'ich sinflarda sinfda o'qish darslarida o'quvchilar to'g'ri, ongli, ifodali, tez va ravon o'qishga o'rgatiladi. O'qituvchi o'quvchilarining ongli o'qish malakalarini taraqqiy ettirishni diqqat markazida tutadi, chunki, ongli o'qish matn mazmunini o'zlashtirish bilan bevosita bog'liq.

Sinfda o'qish darslarida quyidagi masalalarga e'tibor beriladi:

- O'quvchilarning o'qish malakalarini o'stirish;
- O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- O'quvchilarda aqliy yetuklik, ma'naviy go'zallik jismoniy kamolotni tarbiyalash;
- O'quvchilarning odobli, axloqli, estetik didli bo'lishiga yordam berish;
- O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirish;
- Ona-tili va adabiyot bilan tanishtirish haqida ularga nisbatan muhabbat tuyg'ularini uyg'otish.

Sinfda o'qish darslari jarayonida o'quvchilar, mard, to'g'riso'z, mehnatsevar, kamtar va mehribon kishilar haqida tasavvur hosil qiladilar; o'zbek xalqining o'tmishi, bugungi va kelajagi xususidagi bilimlarni yanada orttiradilar. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek o'qish darslarida o'quvchilarning so'z boyligi oshadi va nutqi o'sadi.

Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsligida berilgan materiallar orqali o'quvchilarda DTS talablariga muvofiq bilim va ko'nikmalar hosil qilish bolalarni komil inson ruhida tarbiyalash ona vatan va o'zbek xalqiga muhabbat tuyg'usini o'stirish; o'quv mashg'ulotlarida dastur talab qilgan ilmni o'quvchilarga yetkazish; ularda o'qish va nutq ko'nikmalarini takomillashtirish; berilgan badiiy asar obrazlarda tasavvur qila olish ko'zda tutiladi.

O'quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarni to'g'ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi talab etiladi.

O'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida, o'z vataniga, xalqiga muhabbat, butun dunyo mehnatkashlariga nisbatan do'stlik, birodarlik ruhida

tarbiyalash maqsadida vatan va uning istiqloli hamda ilg'or kishilari, buyuk ajdodlari haqidagi badiy adabiyot namunalari o`qitiladi.

Boshlang'ich sinf, xususan, 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarga nisbatan to`g`ri munosabatda bo`lish jamoada o`z ma`suliyatini anglash, hislatlari tarkib topdirila boriladi.

Boshlang'ich sinfnining dastlabki uch yil davomida o`quvchilar harflarni to`g`ri o`qish, jumladan, so`zlarga ma`no berish o`qish kabi bilim va ko`nikmalarni egallaydilar.

4-sinfda esa o`quvchilarning o`qishga oid ko`nikma va malakalari yanada takomillashtiriladi. Ya`ni o`qish materiallarini tushunish va matn ustida ishlashga e`tibor kuchaytiriladi.

O`qish darslarida badiiy asarni muntazam mutolaa qilib borish istagini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu juda murakkab bo`lib, agar u amalga oshirilmasa o`quvchida o`qish ko`nikmasi va malakasi kam foydali bo`ladi. O`quvchilarda badiiy asarni mustaqil mutolaa qilishni shakllantirish badiiy asarlarga jozibali tomonlarni ko`ra olish, tushunish va his etishga bog`liqdir. Bu o`quvchi bilim va tajribasini kengligi badiiy mushohada qobiliyatlarini rivojlanishini talab etadi. O`quvchi asar voqeasini uning ichki bog`lanishini, asar qahramonlarining ruhiy holatini aniq tasavvur etishi asosida badiiy mushohada shakllanadi. Mushohada yurita olgan o`quvchigina badiiy asardan ma`naviy oziq oladi.

Har bir mavzudan so`ng berilgan savol va topshiriqlar asarni tahlil etishni, uni tushunishga qaratilgan. O`qituvchi o`quvchiga mustaqil ravishda qo`shimcha topshiriqlar berishi, har bir bo`limga oid materiallarni qo`shimcha materiallar bilan boyitish mumkin.

4-sinf boshlang'ich ta`lim tizimining oxirgi sinfi hisoblangani uchun ham o`qish va nutq o`stirish dasturining talabiga muvofiq 1-3-sinflarda hosil qilingan bilim va malakalar kengaytiriladi, umumlashtirib mustahkamlanadi. Shu bilan birga 5-sindan boshlab o`qitiladigan adabiyot va tarix sistematik kursining birinchi bosqichi yuzasidan beriladigan bilimlarni o`quvchilarning puxta o`zlashtirishlari uchun zamin hozirlaydi.

4-sinfda berilgan mavzularga ko`ra badiiy asar namunalari, tarixiy fakt va voqealarni ifodalovchi, ijtimoiy-tarixiy va ilmiy-ommabop maqolalarni o`qitishda shu sohada quyi sinfda hosil qilingan bilim va ko`nikmalarga asoslanadi.

Jumladan, yaxshi o`qish malakalari takomillashtiriladi. Matn ustida ishlash, mustaqil ravishda kitob o`qish ko`nikmalari rivojlantiriladi.

O`qilgan badiiy asar namunalariga uchragan badiiy tasviriy vositalar haqida elementar tushunchalar berilib boriladi. Obrazli so`z va ifodalar bilan tanishtiriladi va avvalgi sinflarga qaraganda biroz murakkablashtiriladi.

O`qish va nutq o`stirish dasturining talabiga ko`ra 4-sinf o`quvchilari o`z bilimlariga mos matnlarni ongli, ifodali hamda normal tezlikda o`qiy olishlari lozim. O`quvchilarning o`qish malakasini takomillashtirish asosan ikki usulda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, ayrim o`quvchilarning o`qish ko`nikmalaridagi kamchiliklarni tugatish yo`llari belgilanadi.

Ikkinchidan, barcha o`quvchilarning ongli, ifodali o`qish ko`nikmalarini yanada rivojlantirish, takomillashtirish alohida diqqat etiladi.

Bolalarning ongli va ifodali o`qish ko`nikmalarini rivojlantirishning eng umumli yo`llari ularning so`z ma`nolari tushunib, mustaqil o`qish malakalarini kuchaytirishdan iborat bo`ladi.

Ko`rinadiki, o`qituvchi bu sinfda doimo o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish, ifodali o`qishni ta`minlash bolalar nutqini boyitish ustida tinmay ishlashi zarur. Bu jarayonda keying pedagogik texnologiyalarni qo`llash, dars davomida turli interfaol metodlardan foydalanish esa eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

1.2. Modulli texnologiya va uni boshlang`ich sinf o`qish darslarida qo`llash.

Oliy majlisning I chaqiriq IX sessiyasida O`zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.karimov shunday degan edi: “Demokratik jamiyatda bolalar umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o`rganmasa, berilgan samarasi past bo`lishi muqarrar”. ( “Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 1997-yil, 9-bet).

O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” dagi yetakchi vazifalaridan biri ta`lim-tarbiya sifatini ko`tarish, ta`lim mazmunini yangilash, yosh avlodni aqliy intellektual taraqqiyotini ta`minlashga yo`naltirilgan uzluksiz ta`lim tarbiyaning yangi modelini ilmiy-pedagogik jihatdan ta`minlangan holda muntazam takomillashtirib borishdan iboratdir.

O`qituvchilar o`z ish faoliyatini quyidagi texnologik jarayonga bo`ysundirishlari kerak: tartibga solish, bir tizimga keltirish, ilgari loyihalashtirilgan ta`lim jarayonini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish.

Ta`lim texnologiyasi tushunchasi- ta`lim metodiga erishish, ya`ni ilgari loyihalashtirilgan ta`lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga ta`lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o`zlashtirish darajasiga erishish va uni tadbqiq etishni hisobga olgan holda ta`lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o`zlashtirish darajasiga erishish va uni tadbqiq etishni hisobga olgan holda ta`lim jarayonini ilgari loyihalashtirishda namoyon bo`ladi.

O`quvchining faoliyat ko`rsatishga yo`naltirilgan, darsning metodik ishlanmasidan farqli o`laroq ta`limning pedagogik texnologiyasi ta`im oluvchi(o`quvchi)larga yo`naltirilgan bo`lib bolalarning shaxs hamda o`qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda, o`quv materiallarini o`zlashtirishga qaratiladi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o`quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta`lim maqsadiga erishishni ta`minlashdan iborat.

Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija , ta`limning samaradorligi, teskari aloqaning mavjudligi ta`lim maqsadning aniq shakllanganligi. U yoki bu pedagogik texnologiyaning tanlash rejalashtirilgan dars va mashg`ulotda qaysi darajadagi bilim va ko`nikmalarini o`zlashtirish nazarda tutilganligiga bog`liqdir.

Boshlang`ich sinf o`qish darslarida modulli o`qitish texnologiyasini qo`llash o`zining bir qator afzalliklariga egadir.

Modulli o`qitish texnologiyasiga o`tishda quyidagi maqsadlar ko`zlanadi.

- O`qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta`minlash;
- O`qitishni individuallashtirish;
- O`quv materiallarini mustaqil o`zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- O`qitishni jadallashtirish;
- Fanni samarali o`zlashtirishga erishish.

Ko`rinadiki, modulli o`qitishda o`quvchilarni o`z qobiliyatiga ko`ra, bilim olishi uchun to`la zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

O`qitishning modul tizimiga o`tish samaradorligi quyidagi omillarga bog`liq bo`ladi:

- o`quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;
- o`qituvchilarning malakaviy darajasi;
- o`quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko`zlangan natijalar bahosi;
- didaktik materiallar ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarini optimallashtirish;

Har qaysi modul bo`yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- O`quvchilarni bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- Individual ishlar uchun topshiriqlar;
- Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- O`quv uslubiy tarqatish materiallar.

Modul o`qitish fanning asosiy masalalari bo`yicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli va yo`riqli darslar o`tilishini taqozo etadi. Darslar o`quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog`i lozim.

Bunda materialning o`zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki:

- Modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- O`quv materialining elementlari orasidagi bog`lanishlar va uning o`tishlari yaqqol ko`rsatiladi;
- Asosiy jihatlari ajratib ko`rsatiladi;
- O`quv materialining (modulning) butun hajmi o`quvchining ko`z oldida gavdalanadi.

Modul tizimida o`quv materialining mazmunini strukturalashda eng avvalo informatsiyani “siqish” vazifasi ko`zlanadi.

Modulli ta`lim o`qitish texnologiyasining eng asosiy negizi- bu o`qituvchi va o`quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. O`qitish jarayonida maqsad bo`yicha kafolatlangan natijaga erishishida qo`llaniladigan har bir modul o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, o`quv jarayonida o`quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o`zlari xulosa chiqara olsalar, o`zlariga , guruhga, guruh ularga

baho bera olsa, o`qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa o`qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzuning o`ziga xos modulli texnologiyasi bo`lib, u o`quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo`naltirilgan, oldindan loyihalshtirilgan va kafolatlangan natija, berishishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

II bob

4-sinf o`qish darslarini modulli texnologiya asosida tashkil qilish va o`tkazish.

2.1. 4-sinf o`qish darslarida modulli texnologiyani qo`llash.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” gi Qonuni hamda Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasida ta`kidlanganidek, o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo`llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berishhozirgi zamon boshlang`ich talimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun esa yangi pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga olib kirish lozim. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang`ich sinf o`quvchisining rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ilg`or usullardan foydalanish juda yaxshi natija berdi. O`qish darslarida o`qitish orqali bolalarda og`zaki va yozma nutq madaniyati, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda ijodiy tafakkur qilish faoliyati rivojlanib boradi.

Hozirgi kunda ilg`or pedagogik texnologiyalardan biri modulli dastur katta ahamiyat kasb etmoqda. Modul dasturi aniq maqsad sari yo`nalganligi, har bir topshiriq uchun qat`iy vaqt belgilanishi, umuman, darsning oldindan rejalashtirilishi o`qituvchilarda katta qiziqish uyg`otayotir.

Modulli ta`limning asosiy mohiyati, o`quvchilar modul dasturlari ustida mustaqil ishlab, ilm olishda belgilangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari ta`lim tasbiyaviy mavzuning maqsadini dars davomida mustaqil bajaradigan topshiriqlar asosida aks ettirgan ko`rsatmalr majmuidir.

Modul dasturlari – dars matni yoki o`qituvchilar tomonidan o`quv materialini rejalashtirish emas, balki o`quvchilarning mazkur mavzuni mustaqil va ijodiy o`rganishi bo`yicha o`quv faoliyati dasturidir. Modul dasturlari o`qituvchilar tomonidan tuzilib, unda modulning umumiy didaktik maqsadi, mavzuni o`rganish

bosqichlari, o`quvchilar tomonidan bajariladigan o`quv faoliyati elementlari, ularning bilimini nazorat qilish yo`llari ketma-ket bayon etiladi.

O`qituvchi modul dasturlarini tuzishda va undan ta`lim jarayonida foydalanishda quyidagilarga e`tibor berishi zarur:

1. O`quv materialini tanlash. O`quvchilarga mustaqil o`zlashtirish uchun tavsiya etiladigan o`quv materialini qisman tanish va ular uddalay oladigan bo`lishi kerak.
2. Vaqtni tejash. O`quvchilar o`quv materialini dasturda belgilangan vaqt doirasida egallab olishlariga erishish zarur.
3. O`quvchilarda mustaqil va ijodiy ishlash ko`nikmalarini hosil qilish. O`qituvchi o`quvchilarni modul dasturlari bilan ishlashga yo`llashdan avval ularda darslik va boshqa manbalar ustida mustaqil ishlash ko`nikmasi shakllanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bunda o`qituvchi darsda o`rganilishi lozim bo`lgan o`quv materialini ikki qismga ajratadi. Birinchi qismini o`qituvchi rahbarligida o`quvchilar ijodiy va mustaqil o`zlashtiradilar, ikkinchi qismini mustaqil bajaradilar.

4. O`quvchilar bilimini nazorat qilish. O`qituvchi modul dasturlari qo`llaniladigan darslari uchun o`tgan mavzular yuzasidan test savollari tayyorlaydi va dastlabki joriy nazorat o`tkazadi. Shuningdek, yangi mavzu bo`yicha test savollarini tayyorlaydi va o`quvchilar bilimini aniqlaydi.

Bundan tashqari modul dasturidan o`rin olgan har bir topshiriq yuzasidan bolalar bilimlarni aniqlash uchun o`quvchilar o`z-o`zini va o`zaro nazoratni amalga oshiradilar. O`qituvchi reyting tizimi bo`yicha mazkur darsga ajratilgan ballardan kelib chiqib, baholash mezonining va har bir nazorat uchun ballarni aniqlash lozim.

Modul dasturlari mazmuni va mohiyatiga ko`ra o`quvchilarning individual ishlashiga, ikkita o`quvchi hamkorlikda ishlashiga, kichik guruhlar hamkorlikda ishlashiga mo`ljallangan bo`lishi mumkin.

O`quvchilarning individual ishlashlariga mo`ljallangan modul dasturlar har bir o`quvchining qiziqishi, ehtiyoji, bilim saviyasini orttirish, o`zlashtirish darajasini aniqlash, kitob ustida mustaqil va ijodiy ishlash ko`nikmalarini rivojlantirishini nazarda tutsa, kichik guruhlar uchun mo`ljallangan modul dasturlari yuqorida qayd etilgan omillar bilan bir qatorda o`quvchilar

o`rtasida o`zaro muloqot, hamkorlik, yordamni vujudga keltirish, o`quvchilarning bir-bir o`rtasida o`zaro nazoratni amalga oshirishni ko`zda tutadi.

Kichik guruhlar uchun tuzilgan modul dasturlaridan foydalanishda ikki xil yondashish mumkin:

1. Musobaqa usuli.

O`qituvchi o`quvchilarni teng sonli guruhlariga ajratadi. Modul dasturini tarqatib, guruhdagi o`quvchilar faoliyatini modul dasturidan o`rin olgan topshiriqlarni bajarishga yo`llaydi. Har bir topshiriq bajarilgandan so`ng, bahs, munozara, savol-javob musobaqa tarzida o`tkaziladi. Guruhlar o`rtasida g`oliblar aniqlanadi. Har bir guruhdagi o`quvchilar o`z faoliyatlarini o`rtoqlarining fikrini hisobga olgan holda baholaydi.

2. Kichik maslahatchilar usuli.

O`qituvchi sinf o`quvchilarini 5-6 ta teng sonli kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruhga kichik maslahat beruvchilar tayyorlaydi.

Kichik maslahatchilar guruhdagi o`quvchilarning faoliyatini nazorat qiladi, tegishli hollarda o`zaro yordam uyushtiradi. Topshiriqlar asosida savol-javoblar o`tkazadi. Kichik guruhlardagi o`quvchilar faoliyati o`zaro nazorat orqali baholanadi.

Modulli darsni quyidagicha o`tkazish tavsiya etiladi.

I. Tashkiliy qism.

II. O`tgan mavzular yuzasidan o`quvchilar bilimini test savollari yordamida aniqlash va baholash (dastlabki joriy nazorat).

III. O`tgan mavzuni yakunlash.

IV. Yangi mavzuning bayoni:

- a) Yangi mavzu bo`yicha tuzilgan modul dasturini tarqatish va o`quvchilarning modulning didaktik maqsadi bilan tanishtirish.
- b) O`quvchilarning yakka yoki kichik guruhlar tartibida modul dasturidagi topshiriqlarning bajarishga yo`llash;
- d) Har bir o`quv faoliyati elementi topshiriqlarining to`liq bajarilishini nazorat qilish, tegishli ko`rsatmalar berish;
- e) Har bir o`quv faoliyati elementi yakunida savol-javob yoki munozara o`tkazish.

V. Yangi mavzu yuzasidan test savollar yordamida o'quvchilar bilimini aniqlash:

- a) O'z - o'zini nazorat;
- b) O'zaro nazorat;
- d) O'qituvchi nazorati.

VI. Darsni umumiy yakunlash.

Masalan, 4- sinfda "Yoz o'tadi soz" bo'limida G'ayratining "Bobomning sovg'asi" hikoyasi o'rganiladi. Bu hikoyani o'qishdan maqsad o'quvchilarda jonivorlarni parvarish qilish, ularga mehr ko'rsatish, ularda mehribonlik tuyg'ularini shakllantirish hisoblanadi. Bu hikoyani o'qish darsini moduli o'qitish asosida tashkil qilishda o'quvchilarning mustaqil ishlash malakasini yanada oshirish maqsadida ko'zlanadi. Dars uchun guruhlarda ishlash maqsadi mujassamlashtirgan modul tuziladi. Sinf o'quvchilari ikki guruhga ajratiladi. Har bir guruh uchun mo'ljallangan modul tayyorlanadi. Bu darsni moduli o'qitish texnologiyasi asosida tashkil qilish darsi ishlanmasini keltiramiz:

Mavzu: Bobomning sovg'asi

O'quv materiali. "Bobomning sovg'asi" hikoyasi. G'ayratini.

Darsning maqsadi: 1. "Bobomning sovg'asi" hikoyasi bilan tanishtirish. Hikoya matni ustida ishlash malakasini oshirish. Hikoya janri haqidagi bilimlarni boyitish.

2. O'quvchilarda jonivorlarni parvarish qilish, ularga mehr ko'rsatish tuyg'sini o'stirish.

3. O'quvchilarning modul asosida mustaqil ishlash malakasini oshirish.

Darsning metodi. Modulda suhbat, mustaqil ish, tarmoqlash metodlari.

Darsning jihozi. Bo'rsiq, chol ko'rinishlari rasmlari, tarqilma materiallar.

Darsning borishi.

O'quvchilar 2 guruhga ajratiladi.

1-guruh uchun dars moduli

O' FE	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar.	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.	Ajratilgan vaqt.
O'E-1	Maqsadi: O'tilgan mavzular bo'yicha bilimlarni mustahkamlash. Savollar- SH. Sa'dullaning qaysi she'rlarini bilasiz? -" Yoz " she'rini ifodali yod	-"Yoz " she'rida qaysi mevalar nomi keltirilgan? – Yozda ro'y beradigan tabiat o'zgarishlarini sanab bering. Tuzgan krossvordlaringizni boshqa guruhlariga yechish	3-

	ayting.-“Yoz” she’rida qaysi mevalar nomi keltirilgan? – Yozda ro’y beradigan tabiat o’zgarishlarini sanab bering. Savollarni bo’lib olib javob tayyorlang. Javobingiz to’liq va aniq bo’lsin.	uchun bering. Chizgan rasmlaringizni ko’rgazmasini tashkil qiling.	daqqa
O’FE-2	Maqsadi: “Bobomning sovg’asi” hikoyasini o’zlashtirish. Topshiriqlar. 1. Hikoyaning 1-qismini ifodali o’qing. 2. Shu qisimga sarlavha toping. 3. Shu qisim yuzasidan savollar tuzing.	Guruhdan ifodali o’qiy olodigan o’quvchilarni tanlab oling. Hamma o’zicha sarlavha topib muhokamaga qo’ysin. Eng chirayli sarlavhani tanlab oling. Savollarni ketma-ketlikda tuzing. Savollarga javob orqali hikoya mazmunini to’liq anglash mumkin bo’lsin.	6 daqqa
O’FE-3	Maqsadi: Yangi mavzuni mustahkamlash. Topshiriqlar. 1. Qolgan guruhlarining 2-O’ F E bo’yicha bajargan ishlarini diqqat bilan tinglang. Ularga baho bering. 2. Quyidagi savollarga javob bering.- Bolalar bobosining bog’ida qanday mevalar yeyishdi?	Savollarga boshqa guruhlar bajargan ishlaridan tushunganlaringiz asosida javob bering. Javoblarni muhokama qiling. Murodjon bobomning qaysi jihatlari yoqdi? U nimaning ovozi eshitdi? Bobo qayerni ko’rib hayron qoldi? Ilgari yerni nima deb atashgan? Rustam aka qayerda ishlar ekan?	4 daqqa
O’FE-4	Maqsadi: Hikoya mazmunidan xulosa chiqaring. Topshiriq. 1. Hikoya mazmunidan kelib chiqqan mehmondo’slik, saxiylik, mehribonlik, muruvvat ko’rsatish haqidagi maqollar toping. 2. Topgan maqolingiz asosida rebus tuzing.	Xalq og’zaki ijodi bo’limida o’qigan maqollaringizni eslang.	10 daqqa
O’FE-	Maqsadi: Mustaqil fikrlashga o’rganish. ” Eng ko’p to’g’ri javoblar” o’yini. Konvert ustida berilgan savollarga guruh	Savollarga to’liq va aniq javob bering. Qanday ko’p to’g’ri javob bo’lsa ball shuncha yuqori bo’ladi.	8

5	a'zolari alohida – alohida javob yozib konvertga joylasin.(Konvert ustida quyidagi savollar yozilgan: -Hikoyadagi voqealar qayerda bo'lgan? Bobo o'z sovg'asini kimga berdi?)		daqiqa
---	--	--	--------

2- guruh uchun dars moduli

O'FE	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiyuzasidan savol-topshiriqlar.	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.	Ajratilgan vaqt
O'FE-1	Maqsadi: O'tilgan mavzular bo'yicha bilimlarni mustahkamlash. Topshiriq.- “ Yoz ” she'rida yozga qanday tarif berilgan, she'rni ifodali yodga oling. She'rdan bog'bonga tegishli gaplarni toping. Sh .Sa'dullaning qanday she'rlarini o'qigansiz?		
O'FE-2	Maqsadi: “ Bobomning sovg'asi ” hikoyasini o'zlashtirish. Topshiriqlar. 1. Hikoyaning 2-qismini ifodali o'qing. 2. Shu qismga sarlavha toping. 3. Qism mazmuni yuzasidan savollar tuzing.	Berilgan topshiriqlarning bajarilishi asosida hikoya yuzasidan quyidagi reja tuziladi. 1. Mirzacho'lga safarga otlandik. 2. Bo'rsiq tomoshasi. 3. Rustam aka bilan suhbat. 4. Bobom sovg'a qilgan qushlar.	
O'FE-3	Maqsadi: Yangi mavzuni mustahkamlash. Topshiriqlar. 1. Qolgan guruhlarining 2-O'FE bo'yicha bajargan ishlarini diqqat bilan tinglash. Ularga baho berish.		

	2. Quyidagi savollarga javob berish. Balalar qayerga yo'l olishdi? Mirzacho'lga ular qachon yetib borishadi? Rustam aka boboga qanday qushlarni tutib berdi? Bolalar bobo to'ydan kelguncha nimalar bilan mashg'ul bo'lishdi? Boboning sovg'asini bobolar qayerda taqdim qilishdi?		
O'FE-4	Maqsadi: Hikoya mavzusidan xulosa chiqarish. Topshiriq. 1. Cho'l hayvonlari haqida topishmoqlar toping? 2. Sizga yoqqan topishmoq asosida rebus tuzing.	O'qituvchi guruhlariga yordam beradi. O'quvchilar quyidagicha maqollar va topishmoqlar topadilar va rebus tuzadilar.	
O'FE-5	Maqsad: Mustaqil fikrlashga o'rgatish, " Eng ko'p to'g'ri javob topish o'yini. Konvert ustida berilgan savollarga guruh a'zolari alohida-alohida javob yozib, konvertga joylang. Konvert ustiga quyidagi savollar yoziladi: -Hikoyada qanday jonivorlar nomi keltirilgan? Mirzacho'lda nimalar qurilgan ekan.		

III va IV guruhlariga ham shunga o'xshash dars moduli tuziladi. Dars modulida berilgan topshiriqlarni o'qituvchi o'quvchilar bilim saviyasi, qiziqishlariga qarab o'zgartirishi mumkin.

Maqollar:

Baxil topsa bosib yer

Saxiy topsa, barcha yer.

Mehr bilan qarasang toshdan gul unar.

Topishmoqlar:

Kasbi doim taqir-tuqir,

Qayda ilon ko'rsa cho'qir.

Uyga vazifa. “ Bobomning sovg'asi ” hikoyasini ifodali o'qish. Qayta hikoyalashga tayyorlanish. Hikoya tabiat manzarasi tasvirlangan o'rinlarni topib, belgilash.

Ko'rinadiki, modulli o'qitish texnologiyasining eng asosiy negizi – bu o'qituvchini va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishida qo'llaniladigan har bir modul o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa chiqara olsalar, o'zlariga, guruhlarga, guruh ularga baho bera olsa, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa o'qitish jarayoning asosi hisoblanadi.

2.2 4-sinf o'qishdan umumlashtiruvchi darslarni modulli texnologiya asosida tashkil etish va o'tkazish yo'llari.

O'qishdan o'tkaziladigan umumlashtiruvchi dars o'quvchilar bilimini bir tizimga solish, o'rganilganlarni takrorlab umumlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. 4-sinfda umumlashtiruvchi dars odatda o'qish dasturidagi u yoki bu muhim mavzu yuzasidan o'tkaziladi. Umumlashtiruvchi dars dasturning butun bir bo'limini yakunlashga xizmat qilishi ham mumkin.

4-sinfda o'qishdan umumlashtiruvchi dars bolalar tasavvuri va tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi, bunday darslarda o'quvchilar egallagan bilimlarning sinf va maktab jamoasi hayotida, har bir o'quvchi hayotida qanday ahamiyatga ega ekanini tushunadilar. Bu darsda o'qituvchi bolalar bilimini boyitadigan mavzuga oid qo'shimcha materiallar ham berishi mumkin.

Umumlashtiruvchi darsda takrorlash ilgari o'qilgan mavzuni o'quvchilar yodida qayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi harakatda bo'lishi, bolalar bilimini sistemalashtirishga, ayrim tasavvur va tushunchalarni tartibga solishga yordam berish lozim. Shunday ekan, bunday darslar uchun kitobdan o'qiganlarga emas, balki bolalarning kuzatishlari natijasida bevosita idroklangan tabiatdagi predmetlar va hodisalar, ijtimoiy hayot voqealari, shaxsiy tajribalari ham material bo'ladi. Maktab hayoti, oila mavzusiga yoki tabiatshunoslikka oid mavzuga

bag'ishlangan umumlashtiruvchi darsning vazifasi kitob materialini o'quvchilarning kuzatishlari, ekskursiyalar jarayonida olingan bilimlari bilan bog'liq hisoblanadi.

4-sinfda o'qishda umumlashtiruvchi darslarda ish turlari xilma-xil bo'lib, ko'rilgan va kechirilganlar yuzasidan, illyustrativ materiallarni (rasmlar, misollar) ko'rsatish va tahlil qilish, o'quvchilarning ayrim asarlardan parchalar o'qish, ekskursiya va kuzatishlar haqida bolalarning og'zaki hikoyani kabilardan foydalaniladi.

Umumlashtiruvchi dars uchun ish turi darsning aniq maqsadidan kelib chiqib tanlanadi. Umumlashtiruvchi darslarga asosan quyidagi pedagogik talablar qo'yiladi.

O'quvchilar muayyan mavzu ustida ishlab, o'qiganlari, ko'rganlari, eshitganlari, kuzatganlari haqida o'z fikr-mulohazalarini dadil va erkin aytish imkoniyatiga ega bo'lsinlar. Masalan, ma'lum bir mavzuni yakunlab o'tkazilgan umumlashtiruvchi darsda bolalar kitobdan shu mavzuga oid o'qigan hikoya va maqollardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek, u yoki bu hikoya yoki maqolada qatnashuvchi shaxslar, ularning xulq-atvorlari haqida o'z fikrlarini aytadilar, ayrim zaruriy hollarda o'qilgan asar mavzunini qisqa bayon qiladilar. Agar mavzuni qisqa bayon qiladilar. Agar mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar bilan ekskursiya o'tkazilgan bo'lsa, ular ekskursiyada ko'rganlaridan nimalar qiziqarli bo'lganini, qaysilari kuchli taassurot qoldirganini aytib berishlariga o'qituvchi yordam beradi. Bular o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi, ularni faol fikrlashga o'rgatadi, o'stiruvchi ta'limning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Modulli texnologiya asosida boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi darslarni tashkil qilish katta ahamiyatga ega.

Buni 4-sinfda " O'zbekiston –Vatanim manim " bo'limi yuzasidan hamda " Xalq og'zaki ijodi " bo'limi yuzasidan umumlashtiruvchi darslarni modulli texnologiya asosida tashkil qilish misolida ko'rsatamiz.

4-sinf " O'qish kitobi " darsligida 14 ta bo'lim berilgan: " Istiqbolim – istiqbolim ", " O'zbekistonim – Vatanim manim ", " Oltin kuz ", " Ma'naviyat – qalb quyoshi ", " Xalq og'zaki ijodi ", " Kumush qish ", " Vatanim o'tmishidan ", " Nima yaxshi-yu, nima yomon? ", " Hayvonot olamida ", " Zumrad bahor ", " Yashasin tinchlik, bor bo'lsin do'stlik ", " Ajdodlarimiz- faxrimiz ", " Jahon bolalar adabiyoti ", " Yoz-o'tadi soz " bo'limlari.

“O‘zbekiston- Vatanim manim “ bo‘limi materiallarini o‘rganishda o‘quvchilarning Vatan haqidagi oldingi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslangan holda bilim beriladi.

Bu bo‘lim materiallarini o‘rganishda o‘quvchilarning Vatan haqidagi oldingi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslangan holda bilim beriladi. O‘quvchilar O‘rta Osiyo respublikalari va O‘zbekistonning barcha viloyat, tumanlarini, u yerdagi kishilarning yashash sharoitlari va turmush tarzini televizor orqali, kitoblar orqali bilib oladigan, undan tashqari o‘zi yashab turgan shahar yoki qishloqdan tashqariga sayohatlarga chiqish orqali boshqa millat bolalari bilan do‘stlashgan bo‘lishlari mumkin.

O‘quvchilar O‘zbekistonning turli shahar va qishloqlariga borib, u yerdagi go‘zal tabiat manzaralarini tomosha qilganlar. “ O‘zbekiston – Vatanim manim “ degan mavzudagi ilk darslardayoq o‘qituvchi o‘quvchilar ongli va shuuriga Vatanning bir siqim tuprog‘idan tortib, tabiiy boyliklarining, obidalarining barcha-barchasini aziz va muqaddas ekanligi haqida bilim berishni maqsad qilib oladi.

Bo‘lim materiallarini o‘quvchi o‘rganib borar ekan, muqaddas Hadisi shariflarda qayd qilingan “ Vatanni sevmok iymondandir “ yoki ‘ Sajdagoh kabi muqaddasdir “ degan fikrlar naqadar buyuk haqiqat ekanligini his qiladi. O‘zbekiston xalqi va bu xalqning mehnatda qo‘lga kiritgan yutuqlari, qalbi pok kishilarning mehnat faoliyatlari bilan yaqindan tanishib boradi.

Bo‘limda berilgan Zafar Diyorning “ Ser quyosh o‘lka ”,“ Dehqon bob ova o‘n uch bolakay qissasi “ A. Oripovning, M. Azamning “ Mardlik va aql yoruhligi“ kabi she‘rlarida vatan va do‘stlik tarannum etilganiga o‘quvchining diqqatini qaratish zarurligi ko‘zda tutilgan.

Mana shularning hammasi bo‘lim yuzasidan umumlashtiruvchi darsni to‘g‘ri tashkil qilishni taqazo qiladi.

“O‘zbekiston-Vatanim manim” bo‘limi yuzasidan umumlashtiruvchi dars reja ishlanmasi quyidagicha bo‘ladi:

“O‘zbekiston-Vatanim manim” bo‘limi yuzasidan umumlashtiruvchi dars

Dars metodi. Modulli o‘qitish usuli, kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi. Tarqatma material, davlat ramzlari, jadval, buyuk tarixiy shaxslar portreti, darslik.

Dars shakli. Noananaviy dars.

1-guruh uchun dars moduli

O'quv faoliyati elementlari (O'FE)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialini yuzasidan savol-topshiriqlar.	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt.
1-O'FE	Maqsad: O'quvchining Vatan haqidagi bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash, og'zaki nutqini o'stirish, savol-topshiriqlar: 1. "O'zbekiston-Vatanim manim" bo'limida yod olgan she'ringizni ayting. 2. Z. Diyor nima uchun she'rini "Quyoshli o'lka" deb nomlagan.	Ichingizda she'rni eslang. "Quyoshli o'lka" she'rini o'qib chiqing.	daqiq
2-O'FE	Maqsad: Mustaqil fikrlashga, izlanishga o'rgatish. 1. Vatan haqidagi maqollarni ayting. 2. O'zbekistonda yetishtiriladigan sabzavotlar haqida topishmoq ayting. 3. Test topshiriqlarini yeching. 1) Osiyoning qo'ynida yashil shahar bor deganda qaysi shahar ko'zda tutiladi: A. Buxoro B. Samarqand C. Toshkent 2) Quyidagi misralar qaysi asardan olingan? Vatanni qorovul emas, chegarachi qo'riqlaydi. A. Mardlik va aql chirog'i. B. Xarita. C. Toshkentnoma.	Quyidagi sinflarda yod olgan topishmoqlaringizni eslang. Testning javobini to'liq ayting. (A. Vatan tarzida)	daqiq
3-O'FE	Maqsad: O'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish, o'qish sur'atini oshirish. Topshiriq: "Xarita" hikoyasidagi ikki o'rtoq suhbatini rollarga bo'lib o'qing.	Avval muallif va qahramonlarning nutqini belgilab oling va o'qishni mashq qiling.	daqiq

4-O'FE	Maqsad: O'quvchilarning Vatanimiz tarixi haqidagi bilimlarini aniqlang."Zinama-zina" o'yini. Topshiriqlar: 1. O'zbekistondagi qadimiy shaharlar nomini ayting. 2. Qadimiy shaharlarda qanday tarixiy obidalar bor? 3. Qadimiy shaharlarimizda yashagan buyuk shaxslar nomini ayting.	Har bir topshiriqni b'lib olib, uning javobini kartoshkaga yozing va zinaning o'z bosqichiga qo'shing. Shohsupaga birinchi yetib kelgan guruh g'olib sanaladi va o'z tamg'asini qo'yadi.	
5-O'FE	Maqsad: O'quvchilarning ijodiy fikrlashini takomillashtirish va yozma nutqni o'stirish. Topshiriq: "Biz vatanimizning kelajagimiz" mavzusida yozib kelgan matningizni o'qing.	Har bir gapingizni qisqa va aniq bo'lishiga imloviy to'g'ri shakllanishiga e'tibor bering.	daqiqa

2-guruh uchun dars moduli

O'quv faoliyati elementlari	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialini yuzasidan savol-topshiriqlar.	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt
1-O'FE	Maqsad: O'quvchilarning Vatani haqidagi bilimlarni kengaytirish	She'rni eslang."Toshkentnom	daqiqa

	va mustah-kamlash, og'zaki nutqni o'stirish savol-topshiriqlar. 1. "O'zbekiston-Vatanim manim" bo'limida yod olgan she'ringizni ayting. 2. "Toshkentnoma" asarida nima uchun Toshkentda uch fasl yoz deyiladi?	a" dostonining 1-qismini o'qib chiqing.	
2-O'FE	Maqsad: Mustaqil fikrlashga o'rgatish. 1. Vatan haqidagi maqol-larni ayting. 2. O'zbekistonda yrtishtiriladigan mevalar haqidagi topishmoqlarni ayting. 3. Test topshiriqlarini yeching. 1) "Toshkentnoma"dostonida shoir mehmonlarni kimga o'xshatgan? A. Oyga B. Yulduzga C. Quyoshga 2) Quyidagi misralar qaysi asardan olingan? Bir o'lka bor dunyoda, biroq Bitilmagan dostonidir bori. A. Qozog'iston B. O'zbekiston C. Turkmaniston	Quyi sinflarda yod olgan maqol va topishmoqlaringizni eslang. Testning javobini to'liq ayting. (A.-Vatan tarzida)	daqiq
3-O'FE	Maqsad:O'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish, o'qish sur'atini oshirish. Topshiriq:"Toshkentnoma" dostonini rollarga bo'lib, ifodali o'qing.	Avval muallif va qahramonlarning nutqini belgilab oling va o'qishni mashq qiling.	daqiq
4-O'FE	Maqsad: O'quvchilarning vatanimiz tarixi haqidagi bilimlarni aniqlash."Zinama-zina" o'yini. Topshiriqlar: 1. Tarixda o'z Vatani uchun jonini fido etgan qaysi tarixiy shaxslarni bilasiz?	Har bir topshiriqni olib, uning javobini kartochkaga yozing va zinaning o'z bosqichiga qo'ying. Shohsupaga birinchi yetib kelgan guruh	daqiq

	2. Yulduzlar ilmini o'rgangan shoh va olim nomini ayting. 3. Umri bo'yi Vatani sog'inchi bilan yashagan shoh va shoir kim?	g'olib sanaladi va o'z tamg'asini qo'yadi.	
5-O'FE	Maqsad: O'quvchilarning ijodiy fikrlashini takomillashtirish va yozma nutqini o'stirish. Topshiriq: "Men vatanimni sevaman" mavzusida yozib kelgan matningizni o'qing.	Har bir g'apingizni qisqa va aniq bo'lishiga, imloviy to'g'ri shakllanishiga e'tibor bering.	daqiqa

Dars yuzasidan ko'rsatmalar.

Darsning tashkiliy qismi uchun 3 daqiqa ajratiladi. Bunda darsni tashkil etish va uning shakli haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar 2 ta guruhga-jamoaga ajratiladi. Jamoalar o'z ichida mustaqil ravishda kichik guruhga ajratiladi, savollarni bittadan bo'lib olib bajarishlari, bir-biriga uzatib to'ldirishlari mumkinligi aytiladi.

Darsda intizom alohida baholanishi tushuntiriladi.

O'quv faoliyati elementining har bir savoli, topshirig'i alohida kartochkaga yozilib, konvertida guruh sardoriga beriladi. O'FE o'qituvchi tomonidan darsga tayyorgarlik vaqtida o'quvchilarning bilim darajasiga qarab kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir o'quv faoliyati elementining bajarilishiga qarab, o'quvchilar jamoasi va ayrim faol o'quvchilar ballar bilan rag'batlantiriladi. Doskaga har bir jamoa ro'yxati alohida ilib qo'yiladi. O'qituvchi ballni e'lon qilib, qo'yib boradi.

Jamoalar to'plagan umumiy ball dars yakunida e'lon qilinadi. Har bir o'quv faoliyati uchun 5 yoki 10 ball me'yorlari asos qilib olinadi.

Darsga yakun yasash uchun 2 daqiqa ajratiladi.

Darsning bu qismida quyidagi savollarga javob olinadi: Bugungi dars sizda qanday taassurot qoldirdi? Dars yuzasidan qanday takliflaringiz bor? Darsda qanday kamchiliklar bor? Savol-topshiriqlar sizda qiyinchiliklar tug'dirdimi?

Uyga vazifa. Kutubxonadan vatan mavzusida badiiy asar va ertaklarni olib. O'qituvchi asarlarning muallifi va nomini aniq aytishi maqsadga muvofiq.

Dars uchun qo'shimcha materiallar.

Ona yurting omon bo'lsa,
Rangi-ro'ying somon bo'lmas.
Vataning tinch - sen tinch.
Toshkent – non shahri.
Toshkent – do'stlik shahri.
Yurt qursang o'zarsan,
Qurmasang to'zarsan.
Dum-dumaloq jajji oy
Chaqib yesang g'ij-g'ij moy.

(Yong'oq)

Ko'ylagi qavat-qavat
Tugmalari yo'q faqat.

(Karam)

Gulsiz meva qiladi
Ko'p yesang til shiladi
Qir g'ildirak oy kulcha
Bu nima, kim biladi?

(Anjir)

Yer tagida oltin qoziq
U hammaga bo'lar oziq.

(Sabzi)

Pak-pakana bo'yi bor
Yetti qavat to'ni bor.

(Piyoz)

Biro nada yuz bola

Yuzovi ham bo'z bola.

(Uzum)

O'zi shirin tukligina

Mazasi ham totligina.

(Shaftoli)

Ma'lumki, xalq tomonidan yaratilgan og'zaki badiiy adabiyot xalq og'zaki ijoda nomi bilan ataladi. U ertak, doston, qo'shiq, lapar, masal, moqol va topishmoq kabi janrlarni o'z ichiga oladi.

Xalq og'zaki ijodi materiallarining tili sodda, sermazmun, g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak va qiziqarlidir.

Bu asarlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqimizning boy turmush tajribalari, aql-zakovati bilan tanishtiradi ularning tafakkuri va nutqini o'stiradi, chinakam insoniy fazilatlar bilan qurollantiriladi.

“Xalq og'zaki ijodi” bo'limi o'z ichiga guruhlariga bo'linadi.

- 1) Qo'shiqlar qanotida – bunda “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Laylak keldi – yoz bo'ldi”, “Xo'p hayda” qo'shiqlari o'rganiladi.
 - 2) Ertaklar mamlakatida – bunda “Davlat”, “Ilm afzal”, “Ko'zacha bilan tulki”, “Ochko'zboy”, “Hiylagarning jazosi”, “Hunarsiz kishi o'limga yaqin”, “Ziyrak uch yigit” xalq ertaklari o'rganiladi.
 - 3) Adabiy ertaklar – bunga adiblar tomonidan yaratilgan “Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak” (A.Obidjon), “Laqma it” (Sh.Sadulla), “Baqa bilan taqa” (A.Abdurazzoq) ertaklari o'rganiladi.
 - 4) Topishmoqlar – bunda xalq topishmoqlari va G'ofur G'ulomning “Buni toping, qizlarim” she'riy topishmog'i o'rganiladi.
 - 5) Maqollar – bunda xalq donoligining namunasi bo'lgan maqollar o'rganiladi.
- “Xalq og'zaki ijodi” bo'limi materiallari o'rganilgan shu bo'lim yuzasidan tashkil qilingan dars ishlanmasi quyidagicha bo'ladi.

“Xalq og'zaki ijodi” bo'limi yuzasidan umumlashtiruvchi dars.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarning “Xalq og'zaki ijodi” bo'limi yuzasidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash.
2. O'quvchilarni xalq merosini o'rganish va qadrlashga o'rgatish.
3. O'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Darsning metodi: Modulli o'qitish usuli.

Dars shakli: Noan'anaviy dars.

Darsning jihozi: Tarqatma materiallar, jadval, darslik, turli rasmlar.

1-guruh uchun dars moduli

O'quv faoliyati elementlari (O'FE)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiyuzasidan savol-topshiriqlar.	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt
1-O'FE	Maqsad:O'quvchilarning xalq og'zaki ijodi haqidagi bilimlarni aniqlash va mustahkamlash. Savollar: 1. Xalq og'zaki ijodining qanday turlari bor? 2. Qanday xalq qo'shiqlarini yod olgansiz? 3. "Davlat" ertagining bosh qahramonlari kimlar? 4. Xalq og'zaki ijodini kim yaratgan?	Savollarni guruh ichida bo'lib olib, javobga tayyorlaning. Javoblarni guruhda muhokama qilgach bering. Vaqtni nazorat qiling.	6-daqiqa
2-O'FE	Maqsad: O'quvchilarni ifodali o'qish malakasini oshirish. Savol-topshiriqlar: 1. Mehnat haqidagi qo'shiqni yoddan ayting 2. "Xop hayda" she'rida otga berilgan ta'rifni topib, belgilang. 3. "Ilm afzal" ertagida berilgan	Darslikning 54-betini ochib she'rni takrorlab yod olish. 2-topshiriqni shu she'r asosida bajaring. Darslikning 58-64 betlarini ochib qaytaring. Izohni birgalikda bajarishga urinib ko'ring.	8-daqiqa

	maqolni topib, ma'nosini aniqlang.		
3-O'FE	Maqsad:Mustaqil fikr-lash ko'nikmasini shakllantirish . Test topshiriqlari: 1.A.Obidjon qalamiga mansub she'riy ertakni belgilang. a)"Laqma it" b)"Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak" s)"Davat" 2.Do'slik kuchi haqida ertak nomini toping. a)"Ovchi, ko'kcha va dono" b)"Ilm afzal" s)"Ziyрак uch yigit" 3."Odob bozorda sotilmas" nima? a)Topishmoq b)Ertak s)Maqol 4.Topishmoq aytish musobaqasi: Mevalar haqida xalq, shoirlar, o'zingiz to'qigan topishmoqlarni ayting.	Test savollariga to'liq javob bering.1-2-3-sinfda yod olgan topishmoqlarni ham eslang.	8-daqiqa
4-O'FE	Maqsad: Ijodiy fikrlash, muastaqil ishlash ko'nik-malarini shakllantirish Topshiriqlar: 1. Javoblari quyidagi so'zlardan tashkil topgan krossvod tuzing. Kamalak, maslahat, lavlagi, varrak, rassom,asalari. 2. "Aql yoshda emas, boshda"	Krossvord tuzishda savolni topishmoq tarzida berishga harakat qiling. Hikoya tuzishda o'qigan ertak,ibratli hikoyalaringizni esga oling.	8-daqiqa

	maqoli mazmuni asosida kichikhikoya tuzing.		
5-O'FE	Maqsad: O'yin orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish."Oq terakmi, ko'k terak" o'yini. Yo'ningizdagi guruh ish-tirokchilariga boshlang. Keling qo'shiq aytamiz, qo'shilishib hammamiz. Oq terakmi, ko'k terak, Bizdan sizga kim kerak?	Ta'rif berganda chegaradan chiqmay odob doirasidan ta'riflang. Masalan: "Orif a'lochi kerak" yoki "Shahlo shoshqaloq kerak" deb javob qaytaring. Eng chiroyli ta'rif baholaniladi.	8-daqiqa

2-guruh uchun dars moduli

O'quv faoliyati elementlari (O'FE)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiyuzasidan savol-topshiriqlar.	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Topshiriqlar uchun ajrilarilgan vaqt
1-O'FE	Maqsad:O'quvchilarning xalq og'zaki ijodi haqidagi bilimlarni aniqlash va mustahkamlash. Savollar. 1.Ertaklarni qadimda nima deb nomlashgan ? 2. Hunarning afzalligi haqida qanday ertak o'qidingiz? 3. Topishmoq qadimda qanday atalgan? 4. Maqol mazmunuga ko'ra necha turga bo'ladi?	2-savolga javobni topishda darslikning 84-86-betlariga qarang...	6 daqiqa
2-O'FE	Maqsad. O'quvchilarnning ifodali o'qish malakalarini oshirish. Savol-	Darslikda berilgan xalq qo'shiqlarini sinchiklab o'qib chiqing...	8 daqiqa

	topshiriqlar. 1. “Laylak keldi-yoz bo’ldi” she’rini yoddan ayting. 2. Xalq qo’shiqlaridan jonlantirishga misol topib yozing. 3. “Baqa bilan taqa” ertagi mazmuniga mos maqol topib, mazmunini izohlang .		
3-O’FE	Maqsad. Mustaqil fikirlash ko’nikmasini . I. Test topshiriqlari. 1. Anvar Obidjon qalamiga mansub she’riy ertakni belgilang. a) “Laqma it” b) “Bo’rining tabib bo’lgani haqida ertak” s) “Davat” 2. Do’stlik kuchi haqida ertak nomini toping. a) “Ovchi, Ko’kcha va dono” b) “Ilm afzal” s) “Ziyrak uch yigit” 3. “Odob bozorda sotilmas” nima? a) topishmoq b) ertak s) maqol 4. Topishmoq aytish musobaqasi. Mevalar haqida xalq, shoirlar, o’zingiz to’qigan topishmoqlarni ayting.	Test savollariga to’liq javob bering. 1-2-3-sinfda yod olgan topishmoqlarni ham eslang.	8 daqiqa
4-O’FE	Maqsad. Ijodiy fikirlash, mustaqil ishlash ko’nikmalarini shakllantirish. I. Test topshiriqlari. 1. Shukur Sa’dulla qalamiga mansub	Krossvord tuzishda savolni topishmoq tarzida berishga harakat qiling. Hikoya tuzishda o’qigan ertak, ibratli hikoyalaringizni esga oling.	8 daqiqa

	ertakni belgilang . a) “Laqma it” b) “Ilm afzal” s) “Tulki bilan ko’zacha” 2. Bilim olish afzalligi haqidagi ertakni toping. a) “Davlat” b) “Baqa bilan taqa” s) “Ilm afzal” 3. “Boychechak “ asari qanday asar? a) Qo’shiq b) Ertak s) Topishmoq II. Topishmoq aytish mysobaqasi: Tabiatga aloqador topishmoqlarni ayting.		
5-O’FE	Maqsad: O’quvchilarning ijodiy qobiliyatini o’stirish. 1. Javoblarni quyidagi so’zlardan tashkil topgan krossvord tuzing: tugma, gultuvag, tarvuz, uzuk, karavot, laylak. 2. “Go’zallik husnda emas mehnatdadir” maqoli mazmunini asosida kichik hikoya tuzing.	Kichik jamoalarga bo’linib ishlang.	8 daqiqa

3-guruh uchun dars moduli yuqoridagilar kabi tuziladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, modulli texnologiyani qo'llash bilan tashkil qilingan va o'tkazilgan umumlashtiruvchi darslarda o'quvchilarning bilim olishlarini faollashadi, o'qitish samaradorligi yuqori darajada bo'lishi kafolatlanadi. Modulli darslarning afzalligi an'anaviy dars bilan taqqoslanganda ko'zga yaqqol tashlanadi.

Xulosa

“O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida” gi Nizomda ta'kidlanganidek: “Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini-o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta'minlashga da'vat etilgan”. Shu asosga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, datlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishgib, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari o'z mohiyati va maqsad – vazifalariga ko'ra juda katta o'rin tutadi. Shuning uchun o'qish darslari zamon talablari asosida ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan sanaladi. Hozirga davrda boshlang'ich ta'lim jarayoniga tadbiq etilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan biri modul texnologiyasidir.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida, xususan, 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi, ularga fan asoslaridan chuqur bilim beruvchi texnologiyalardan biri bo'lmish modulli texnologiyaning alohida o'rne bor.

Modulli o'qitish – bu o'quv matni yoki o'qituvchilar tamonidan o'quv materialini rejalashtirish emas, balki o'quvchilarning u yoki bu mavzuning mustaqil o'zlashtirishi bo'yicha o'quv-biluv faoliyati dasturidir.

Modulli texnologiya asosida tashkil qilingan 4-sinf o'qish darslari o'z samaradorligi bilan boshqa darslardan ajralib turadi. Binobarin, modulli

o'qitish aniq maqsad sari yo'nalganligi, har bir topshiriq uchun qat'iy vaqt belgilanishi, umuman, darsning oldindan rejalashtirilishi bilan diqqatga sazovordir. Bunda 4-sinfda G'ayratiyning "Bobomning sovg'asi" hikoyasi o'rganiladigan dars yaqqol misol bo'la oladi.

Ma'lumki, o'qishdan o'tkaziladigan umumlashtiruvchi dars o'quvchilar bilimini bir tizimga solish, o'rganilganlarni takrorlab umumlashtirish maqsadiga xizmat qiladi.

4-sinfda umumlashtiruvchi, dars odatda o'qish dasturidagi u yoki bu muhim mavzu yuzasidan o'tkaziladi. Umumlashtiruvchi dars dasturning butun bir bo'limini yakunlashga xizmat qilishi ham mumkin. Umumlashtiruvchi darsda takrorlash ilgari o'qilganlar mazmunini o'quvchilar yodida qayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi xarakterda bo'lishi, bolalar bilimini sistemalashtirishga, ayrim tasavvur va tushunchalarni tartibga solishga yordam berishi lozim.

4-sinfda o'qishdan umumlashtiruvchi darslarda ish turlari xilma-xil bo'lib, ko'rilgan va kechirilganlar yuzasidan, illyustrativ materiallarni (rasmlar, misollar) ko'rsatish va tahlil qilish, o'quvchilarning ayrim asarlardan parchalar o'qish, ekskursiya va kuzatishlar haqida bolalarning og'zaki hikoya kabilardan foydalaniladi.

Umumlashtiruvchi dars oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi uni modulli texnologiya asosida tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, 4-sinfda "O'zbekiston – Vatanim manim", "Xalq og'zaki ijodi", "Kumush qish", "Ajdodlarimiz – faxrimiz" kabi bo'limlar yuzasidan o'tkaziladigan umumlashtiruvchi darslarni modulli texnologiya asosida olib borish bu darslarning samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat etadi. O'quvchilar o'zlari bajarayotgan topshiriqning mohiyatini tushungan holda, o'qib – o'rganganlari asosida mustaqil fikrlaydilar. Shu bilan birga, ularda ijodiy tafakkur ham shakllantiriladi. Modulli texnologiya asosida tashkil qilingan umumlashtiruvchi darslarda o'quvchilar faolligi juda sezilib turadi, ularning darsga qiziquvchanligi namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda 4-sinf o'qish darslarida modulli texnologiyani qo'llash o'z samarasi, darsda yuksak natijalarga erishishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent : “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010
3. Karimov I.A. mamlakatimizning modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. // Boshlang'ich ta'lim, 2011, 1-son, 2-3- betlar
4. O'zbekiston Respublikasining “ Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori . – Toshkent: “ sharq “ nashriyot-matbaa konserining Bosh tahririyati, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent : “Sharq” nashriyot-matbaa konserining Bosh tahririyati, 1998.
6. Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: Qurbonov Sh., Saidov H., Ahliddinov R.) – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.
7. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2005. 5-son, 5,6,7,8,9-betlar.
8. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2005. 5-son, 21-33-betlar.
9. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son
10. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, - Toshkent, 2010.
11. Abdullayeva Q. yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlang'ich ta'lim, 1999, 4-son , 8-9-betlar.
12. Anorbayev A. Badiiy asar-ma'naviy boylik // Boshlang'ich ta'lim, 2008, 6-son, 18-bet.
13. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

14. Dolimov Z. She'riy asarlarni o'rganish // Boshlang'ich ta'lim, 2006, 3-son, 20-21-betlar.
15. Matchonov S., Shojalilov A. va boshqalar. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent, “ Yangiyul Poligraph servise” , 2007.
16. Matchonov S., G'ulomova X., Dolimov Z. 4-sinfda o'qish darslari. – Toshkent: “ Yangiyul Poligraph servise” , 2007.
17. Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Boshlang'ich sinf o'qish darslaini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – Toshkent:, “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.
18. Matchonov S., G'ulomova X. Hikoya qanday o'qiladi? // Boshlang'ich ta'lim, 2004, 1-son, 8-10-betlar.
19. Mirhaitova S. Modulli texnologiya // Boshlang'ich ta'lim, 2004, 1-son, 16-18-betlar.
20. Nazarova H., Anorboyeva A. O'qish darsi – nafosat olami // Boshlang'ich ta'lim, 2008, 11-son, 5-bet.
21. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.
22. Safarova R., Musayev U., Musagev P., Yusupova P., Nurjonova R. O'zbekiston Respulikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari, ta'lim mazmuning yangi modellari, ularni tadbqiq etish yo'llari. – Toshkent, 2005.
23. Sattorova M., Sharipova R. Mukammalik yo'lida // Boshlang'ich ta'lim, 2008, 34-son, 14-15-betlar.
24. Tolipova J. Modulli dars // Boshlang'ich ta'lim, 2001, 4-son, 16-19-bet.
25. Ubayxo'jayeva R. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash // Boshlang'ich ta'lim , 2006, 3-son, 6-7-betlar.
26. Yusupova M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. – Toshkent: “ O'qituvchi”, 1990.
27. Xoliqova M. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 5-son, 20-21-betlar.
28. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – Zamonaviy o'zbek modeli. – Toshkent: “ Lider Press”, 2009.
29. G'afforova T. Erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 4-son, 12-bet.

30. Shodiyeva M., Ne'metova F. Muammoli o'qitish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 4-son, 6-7-betlar.
31. Internet ma'lumotlari: www.ziyonet.uz

Mundarija

Kirish.....	3
I bob	
4-sinf o'qish darslarining maqsad-vazifalari va unga qo'yiladigan modulli texnologiyaning mohiyati.	
1.14-sinf o'qish darslarining maqsad-vazifalari.....	10
1.2Modulli texnologiya va uni boshlang'ich sinf o'qish darslarida qo'llash	19
II bob	
4-sinf o'qish darslarining modulli texnologiya asosida tashkil qilish va o'tkazish	
2.14-sinf o'qish darslarida modulli texnologiyani qo'llash	27
2.24-sinf o'qishda umumlashtiruvchi darslarni modulli texnologiya asosida tashkil qilish va o'tkazish yo'llari	46
Xulosa.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar.....	79

**Al-Xorazmiy nomli UrDU Pedagogika fakulteti “ BT va STI” ta’lim yo’nalishi
bitkazuvchisi Vaisova Faridaning “ 4-sinf o’qish darslarida modulli
texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Boshlang’ich sinflarda o’qish darslari katta ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega,. U bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda, ma’naviy dunyosini boyitishda hamda yaxshi o’qish malakalarini takomillashtirishda alohida o’rin tutadi. Ayniqsa, uni bugungi kun talablaridan kelib chiqib ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish muhimdir. Shu ma’noda 4-sinflarda o’qish darslarini ilg’or texnologiyalardan hisoblanmish modulli texnologiyalar asosida tashkil qilish yo’llari metodik jihatdan o’z yechimini topmagan masalalardan biridir. F. Vaisovaning bitiruv-malakaviy ishi ana shu masalaning tadqiqiga bag’ishlanganligi bilan dolzarb hisoblandi.

Bitkazuvchi talaba ish mavzusini mantiqiy izchillikda tuzilgan reja asosida yoritgan. U kirish, II bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan tuzilagan. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, o’rganilish darajasi, metodlari kabilar o’z aksini topgan.

Ishning I bobida 4-sinf o’qish darslarining maqsad vazifalari va unda qo’llanadigan modulli texnologiyaning mohiyati ko’rsatilgan.

II bob esa 4-sinf o’qish darslarini modulli texnologiya asosida tashkil qilish va o’tkazish masalasiga bag’ishlangan bo’lib, unda 4-sinf o’qish darslarida modulli texnologiyani qo’llash, 4-sinf o’qishdan umumlashtiruvchi darslarni modulli texnologiya asosida tashkil qilish va o’tkazish masalalari o’zining metodik yechimini topadi. Ishda 4-sinf modulli texnologiya asosida tashkil qilingan darslarining ishlanmalari ham keltirib o’tilgan. Bu esa ishning amaliy metodik qimmatini oshiradi. Xulosada o’rganilgan masala yuzasida umumiy xulosalar qisqa va aniq ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan talaba ishni yozish jarayonida o’qib-o’rgangan va foydalangan adabiyotlari, manbalar hamda me’yoriy hujjatlar o’rin olgan.

Talaba ishni savodxonlik bilan yozgan. Uning qo’lyozma hajmi 83 sahifani tashkil qiladi.

Men bitkazuvchi talaba F.Vaisovaning ushbu bitiruv-malakaviy ishini tugallangan deb hisoblayman . Bu ish shunday ishlar oldiga qo’yilgan barcha talablarga to’la javob beradi. Uni bakalavr darajasini olish uchun ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

Urganch tumani 5-son umumta’lim maktab

boshlang’ich sinf o’qituvchisi Otajonova R.

Al-Xorazmiy nomli UrDU Pedagogika fakulteti “BT va STI” yo`nalishi
bitkazuvchisi Vaisova Faridaning “4-sinf o`qish darslarida modulli
texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga ilmiy
rahbar

T A Q R I Z I

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni hamda “Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi”da ta`kidlaganidek, o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo`llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang`ich ta`limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun esa yangi pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga olib kirish lozim. Ayniqsa, ilg`or usullarni o`qish darslarida qo`llash o`quvchining tafakkurini rivojlantiradi, chuqur bilim olishlariga vosita bo`lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan 4-sinfda o`qish darslarida modulli texnologiyalarni qo`llash masalasiga bag`ishlangan ushbu bitiruv-malakaviy ish mavzusi dolzarblik kasb etadi.

Talaba ish mazmunini Kirish, II bob, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati kabi qismlar orqali yoritib bergan. Ishda 4-sinf o`qish darsliklarining maqsad vazifalari va unda qo`llaniladigan modulli texnologiyaning mohiyati masalasi yoritilgan. Shuningdek, 4-sinf o`qish darslarini modulli texnologiya asosida tashkil qilish va o`tkazish yo`llari xususida fikrlar bayon qilingan. 4-sinf o`qishdan umumlashtiruvchi darslarni modulli texnologiya asosida tashkil etish haqida to`xtalgan. Ularning dars ishlanmalaridan namunalar keltirilgan. Ish xulosalangan.

Ishda talaba tomonidan ko`rsatilgan modulli texnologiya asosida 4- sinf o`qish darslarini tashkil qilish yo`llari boshlang`ich sinf o`qituvchilari uchun metodik jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Talaba ishni yozish jarayonida ko'pgina ilmiy-metodik adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan yaqindan tanishgan. Ularga munosabat bildirgan. Shuningdek, o'zini ta'lim davrida o'zlashtirgan bilim, malaka va ko'nikmalarini amalda qo'llay oladigan mustaqil tadqiqotchi sifatida namoyon qila olgan.

Men bitkazuvchi talaba F. Vaisovaning ushbu bitiruv-malakaviy ishini tugallagan deb hisoblayman. Bu ish shunday ishlar oldiga qo'yilgan barcha talablarga to'la javob beradi. Uni bakalavr darajasini olish uchun ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

Ilmiy rahbar:

O. Pirmatova